Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81'25
FILOLOGIYA

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI YURIDIK DISKURSDA TERMINOLOGIK MOSLIK VA SEMANTIK TAFOVUTLAR

Gulmiyra Patullaeva*
Qoraqalpoq davlat universiteti
✉ gulmira@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot ingliz va qoraqalpoq tillaridagi yuridik diskursda terminologik moslik va semantik tafovutlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ingliz huquqiy terminologiyasi Common Law an'analariga, qoraqalpoq yuridik tili esa kontinental va post-sovet huquqiy tizimi asoslariga tayanishi sababli ikki tilda muayyan huquqiy tushunchalar o'rtasida to'liq ekvivalentlik mavjud emas. Tahlil natijalari yuridik tarjimada so'zma-so'z tarjimadan ko'ra funksional ekvivalentlik, tavsifiy tarjima, transliteratsiya va kontekstual moslashtirish strategiyalaridan foydalanish samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar

yuridik terminologiya, semantik nomuvofiqlik, yuridik tarjima, funksional ekvivalentlik, adekvatlik, huquqiy diskurs, tarjima strategiyasi.

DOI: 10.5281/zenodo.21835505

KIRISH

Globallashuv va xalqaro huquqiy munosabatlarning rivojlanishi turli tillardagi yuridik matnlarni aniq va adekvat tarjima qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Yuridik tarjima boshqa turdagi tarjimalardan farqli ravishda alohida mas'uliyatni talab qiladi, chunki terminning noto'g'ri tarjima qilinishi huquqiy mazmunning o'zgarishiga yoki huquqiy oqibatlarning noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. E. Alcaraz va B. Hughes yuridik tarjimon ikki tilni bilish bilan bir qatorda tegishli huquqiy tizimlarni ham tushunishi kerakligini ta'kidlaydi [1, b 23].

Yuridik birliklarning ekvivalentligini belgilashda uchta tayanch mezon ustuvor hisoblanadi. Birinchidan, konseptual muvofiqlik, ya'ni ingliz va qoraqalpoq birliklari bir huquqiy tushuncha o'zagini anglatishi yoki anglatmasligi aniqlanadi. [2, 103]

Ikkinchidan, funksional muvofiqlik, ya'ni termin real huquqiy amaliyotda qanday vazifani bajarishi, qaysi subyektga nisbatan qo'llanilishi, qanday oqibatga olib kelishi tekshiriladi. Uchinchidan, qo'llanish doirasi, ya'ni birlikning qonun matni, shartnoma tili, sud qarori, protsessual hujjat, ilmiy sharh yoki ma'muriy yozishmalarda namoyon bo'lish xususiyati hisobga olinadi.

METODLAR

Tadqiqotda ingliz va qoraqalpoq tillaridagi yuridik terminlarni o'rganish uchun bir nechta lingvistik va tarjimashunoslik metodlaridan foydalanildi.

Birinchi navbatda, qiyosiy metod yordamida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi yuridik terminlarning shakli, mazmuni va huquqiy funksiyasi o'zaro taqqoslandi.

Ikkinchidan, semantik tahlil metodi orqali terminlarning lug'aviy va huquqiy ma'nolari o'rganildi. Uchinchidan, kontekstual tahlil asosida terminlarning yuridik hujjatlar va protsessual matnlardagi ma'nolari aniq-

landi.

Shuningdek, tadqiqotda funksional tahlil metodi qo‘llanib, ingliz tilidagi terminning huquqiy tizimda bajaradigan funksiyasi qoraqalpoq tilidagi mos yoki yaqin birlik bilan solishtirildi. Yuridik tarjima strategiyalarini aniqlashda H. Mattilaning huquqiy tarjima va qiyosiy yuridik lingvistika haqidagi qarashlariga tayanildi [3, b 308].

NATIJALAR

Tahlil natijasida ingliz va qoraqalpoq tillaridagi yuridik terminlar o‘rtasidagi semantik nomuvofiqliklar, asosan, huquqiy tizimlarning tarixiy va institutsional farqlari bilan bog‘liqligi aniqlandi.

Birinchi muhim natija — ayrim ingliz yuridik terminlarining qoraqalpoq tilida to‘liq ekvivalenti mavjud emasligidir. To‘liq ekvivalentlar qatlamiga tegishli terminlarda ingliz va qoraqalpoqcha birliklar orasida mazmun yadro, funksional status va qo‘llanish sohasi, asosan, mos keladi. Bunday birliklar, odatda, ko‘p tizimlarda mavjud bo‘lgan umumhuquqiy tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, *kontrakt* termini ko‘p hollarda ”*sha’rtnama*” ekvivalenti bilan doimiy moslashadi.

Har ikki tilda u ikki yoki undan ortiq tomon o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarni belgilovchi huquqiy shartnomani anglatadi. Biroq mazmuniy moslik shu yerning o‘zida tugamaydi: ingliz tilidagi contract shartnoma huquqining maxsus tarkibiy elementlari bilan o‘qiladi, qoraqalpoq tilidagi ”*sha’rtnama*” esa kodifikatsion normalar va turli xildagi bitimlarga tegishli tizimda ishlaydi.

Evidence va ”*da’lil*” juftligida ham semantik yaqinlik kuchli, ayniqsa protsessual nutqda *admissible evidence, documentary evidence, burden of proof* kabi birikmalar qoraqalpoq tilida *”qabil etiletug’in da’lil,” ”hu’jjetli da’lil,” ”isbatlaw*” kabi barqaror birliklar bilan ifodalanadi. Bu holat yuridik terminologiyada to‘liq ekvivalentlik mavjudligini ko‘rsatsa-da, har bir terminning amaliy qo‘llanishida huquq tarmog‘i va hujjat turi baribir e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Ikkinchi muhim natija jinoyat-protsessual terminologiyada kuzatildi. “*Arraignment*” termini ingliz huquqida ayblanuvchiga qo‘yilgan ayblovning rasmiy e’lon qilinishini anglatuvchi muayyan protsessual tushunchadir. Bu natija ingliz tilidagi yuridik terminlarning huquqiy tushuncha va funksiyaga bog‘liqligi haqidagi S. Sarcevic qarashlari bilan hamohangdir [4, b 48].

Qoraqalpoq tilida aynan shu protsessual bosqichni ifodalovchi bitta so‘zli ekvivalent bo‘lmaganda, “*ayiplaniwshig’a qoyilg’an ayiptin’ ra’smiy ja’ryalaniwi*” kabi tavsifiy tarjimadan foydalanish mumkin.

Tadqiqotda “*shall*” modal birligining tarjimasi ham alohida muammo sifatida belgilandi. Ingliz yuridik hujjatlarida “*shall*” ko‘pincha majburiyatni bildiradi. Uni oddiy kelasi zamon shaklida tarjima qilish majburiylik semasining susayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois qoraqalpoq tilida “*tiyis*”, “*minnetli*”, “*shárt*” kabi majburiyatni ifodalovchi birliklardan foydalanish maqsadga muvofiq.[5, b 29]

“*Advocate*” termini esa kontekstga bog‘liq semantik farqlanishga ega. Umumiy ingliz tilida u “*qorg’awshi*”, “*qo‘llap-quwatlawshi*” ma’nolarida kelishi mumkin. Yuridik kontekstda esa professional huquqshunosni anglatadi. Shuning uchun *patient advocate* birikmasini kontekstga qarab “*patsiyent huquqlarin qorg’awshi shaxs*” tarzida tarjima qilish “patsiyent advokati” shakliga qaraganda semantik jihatdan aniqroq bo‘lishi mumkin.

Protsessual huquqda “*cross-examination*” termini ham to‘liq ekvivalentlik muammosini yuzaga keltiradi. Ushbu termin sud jarayonida qarama-qarshi tomon tomonidan guvohga savollar berish jarayonini bildiradi. Uni faqat “*qarama-qarsi ta’repten gu’wani soraw*” shaklida berish mumkin bo‘lsa-da, ayrim kontekstlarda uning huquqiy funksiyasini tavsifiy tarzda ifodalash aniqroq natija beradi.

“*Evidence*” terminining tarjimasida ham semantik farqlar mavjud. Ingliz huquqida admissible *evidence* va *inadmissible evidence* kabi tushunchalar muayyan protsessual qoidalar asosida farqlanadi. Qoraqalpoq tilida “*dálil*” atamasi qo‘llanadi, biroq uning huquqiy mazmuni ingliz tizimidagi barcha protsessual chegaralarni avtomatik ravishda qamrab olmaydi. Shuning uchun tarjimon terminning kontekstual va huquqiy ma’nosini hisobga olishi lozim.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, yuridik tarjimada asosiy muammo ikki tildagi so‘zlarning lug‘aviy

mosligini aniqlash emas, balki ularning huquqiy funksional ekvivalentligini ta’minlashdan iborat. D. Cao yuridik tarjimada huquqiy tushunchalarning milliy huquq tizimiga bog‘liqligini alohida ta’kidlaydi [6, b 53].

Yuridik terminlarning “system-bound” xususiyati shuni anglatadiki, terminning ma’nosi ko‘pincha u tegishli bo‘lgan huquqiy tizim orqali shakllanadi. Shu sababli ingliz tilidagi Common Law tushunchalarini qoraqalpoq tiliga tarjima qilishda bevosita so‘zma-so‘z tarjima ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi. [7, b 9-10].

XULOSA

Tadqiqot natijalari ingliz va qoraqalpoq tillaridagi yuridik terminologiya o‘rtasida sezilarli semantik nomuvofiqliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu nomuvofiqliklarning asosiy sababi ikki huquqiy tizimning tarixiy, institutsional va konseptual jihatdan farqlanishidir.

Consideration, arraignment, shall, advocate, cross-examination, evidence va due process kabi terminlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, yuridik tarjimada so‘zma-so‘z tarjima har doim ham adekvat natija bermaydi.

Bunday vaziyatlarda funksional ekvivalentlik, tavsifiy tarjima, funksional almashtirish, transliteratsiya va kontekstual moslashtirish kabi strategiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, yuridik tarjimaning asosiy maqsadi so‘zlarni emas, huquqiy mazmun va huquqiy kuchni imkon qadar to‘liq saqlashdan iborat. Ingliz-qoraqalpoq yuridik tarjimasining sifatini oshirish uchun tarjimon ikki tilni bilish bilan birga ikkala huquqiy tizimning terminologik va konseptual xususiyatlarini ham yaxshi o‘zlashtirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alcaraz, E., Hughes, B. Legal Translation Explained. Routledge. 2014
2. N.Allamuratov Qaraqalpaq tilinde yuridik terminler. 2023
3. Mattila, H. E. S. (2013). Comparative Legal Linguistics: Language of Law, Latin and Modern Lingua Francas. Ashgate
4. Sarcevic, S. New Approach to Legal Translation. Kluwer Law International.
5. E.Berdimuratov Qaraqalpaq tili terminologiyasi. No’kis, 1989
6. Cao, D. Translating Law. Multilingual Matters. 2007
7. D.B.Seytqasimov Qaraqalpaq tilinde nizamshiliq stiline baylanisli o’zgeshelikler. No’kis 2024